

# Korrupsiyaga qarshi kurash

2022-yil 14-aprel kuni Turin Politexnika Universitetida “Korrupsiyaga qarshi kurash” va “Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish” hozirgi zamonamizning dolzarb mavzularida talabalar o‘rtasida suhbat bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimi A.Ergashev, Olmazor tumani 4-sonli IIB Yoshlar bilan ishlash inspektorlari: mayorlar R.Nasirov va O. Yusupovlar ishtirok etdi.

Ma‘ruzachilar o‘z nutqlarida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, shuningdek, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan muhim huquqiy baza yaratilganini ta’kidladilar.

Qabul qilingan qonunlarning mohiyati va mazmuni atroflicha tushuntirilib, ularda jamiyat hayotining turli jabhalari rivojida qonunga xilof xatti-harakat va huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilmasligiga asosiy e‘tibor qaratildi. Tadbir davomida yoshlarni mas‘uliyat va hushyorlikka da‘vat etuvchi tematik videorolik namoyish etilib, yoshlar tomonidan berilgan savollarga atroflicha javob qaytarildi.



[WWW.POLITO.UZ](http://WWW.POLITO.UZ)





[WWW.POLITO.UZ](http://WWW.POLITO.UZ)





[WWW.POLITO.UZ](http://WWW.POLITO.UZ)